

BOLA RUHIYATI TASVIRI (CH.AYTMATOV VA O'.HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA)

S. Xo'jayev

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Tuychiboyeva Nodira Komiljon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali Ch.Aytmatov va O'.Hoshimov asarlarida bola ruhiyati talqinlari, dialog va monologlarning qahramon ruhiyatini ochib berishdagi ahamiyati, psixologik tasvir nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Tayanch so'z va iboralar: stadial umumiylik, dialog, monolog, ichki monolog, ong oqimi, individual uslub, nebkin tuyg'ular, psixologik tasvir.

IMAGE OF THE CHILD SPIRIT

ABSTRACT

By this article analyzed child's psyche, dialogues and role of monologues in revealing the heroic spirit, psychological imagenary in the works of Ch.Aytmatov and O'.Hoshimov.

Key words and word expressions: stadial generality, dialogue, monologue, internal monologue, consciousness flow, individual style, nebkin emotions, psychological image.

ОБРАЗ ДЕТСКОЙ ПСИХИКИ

АННОТАЦИЯ

Через эту статью в творчестве Чингиза Айтматова и Уткира Хашимова интерпретация детской психики значение диалогических и маналогов в раскрытии психики героя анализируется с точки зрения психологического изображения.

Ключевые слова и фразы: стадияльная общность, диалог, монолог, внутренний монолог, поток сознания, индивидуальный стиль, бурные эмоции психологические образы

KIRISH

Adabiyotning eng qadimgi zamonlaridan to hozirgacha kechayotgan rivojlanish jarayoniga nazar solinsa, undagi turfa adabiy qarashlar ko'p jihatdan bir biriga mutanosib. Masalan, milliy eposimiz "Alpomish" dostoni va Homerning "Odisseya" sidagi o'xshash jihatlar. Shunga bog'liq holda milliy adabiyotlar taraqqiyotining muayyan bosqichlari ham mohiyatan o'xshash bo'ladiki, ilmda buni "milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial (davriy) umumiylik"⁵ deb yuritiladi. XVIII asrda Yevropada keng quloqch yoygan ma'rifatchilik harakati va Turkistondagi jadidchilik harakati o'zining ko'p jihatlari bilan o'xshashlik kasb etadi. Bu davr adabiyotida asar qahramonlari taqdiri, ularning jamiyatdagi o'rni maqomi, kelib chiqishi, nasl-nasabi bilan belgilangan. Jadid adabiyoti vakili Cho'lpon o'zining "Muhtaram yozg'uchilarimizga" nomli maqolasida jadidlarning bu boradagi qarashlarini umumlashtirib "Adabiyot hayotga yaqinlashishi kerak, uning vazifasi milliy turmushimizning eng dolzarb muommolarini qalamga olishda"⁶ deb biladi. Biz bilamizki, badiiy adabiyot muallifning konkret maqsadga erishish vositalaridan biri hisoblanadi. Ma'rifatchilarning asarlarida ham bu o'z aksini topgan. O'z asarlarida ko'pincha bosh qahramonlar tilidan muayyan g'oyalarni targ'ib qilishgan. Buning natijasida ochiq g'oyaviy kurashlar, konfliktlar yuzaga kelgan. Masalan, Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi", Behbudiyninig "Padarkush" asarlarida ham shu yo'ldan borilgan. Ayniqsa "Munozara" asaridagi qahramonlar dialoglarida bu jihatlar yanada yorqinroq aks etgan. Dialog-ikki kishi o'rtasidagi og'zaki muloqot, suhbat. Ushbu shakl o'quvchida o'z-o'zidan masalani faol mushohada qilishga undashi, qolaversa, baxs mavzusiga jonli qiziqish uyg'otishi bilan ko'plab yozuvchilarni o'ziga jalb etgan deyishimiz mumkin. Chunki ushbu shakl orqali qahramonlar xarakteri va bevosita o'sha jarayon aks ettiriladi. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi psixologig tasvirning bevosita shakli hisoblanadi.⁷

O'.Hoshimov va Ch. Aytmatov asarlarida ham qahramonlar ruhiyati aynan shu shakllar orqali ochib berilgan. Masalan, O'.Hoshimovning "Ikki karra ikki- besh" asaridagi quyidagi dialog yuqoridagi fikrni asoslaydi.

-Tirikmisan bolajonim! –dedi ovozi bitta, o'zi ikkita onam

-Tirikman, enalar!-dedim iljayib. Keyin boshimga otam egildi.

⁵ Quronov D. Adabiyot nazriyasi asoslari. T.:2018. B-257

⁶ O'sha asar B-261

⁷ Quronov D. Adabiyot nazriyasi asoslari. T.:2018. B-103

-Nima bo'ldi, Qo'shoqvoy?

Negadir dadamning ko'zi to'rtta bo'lib ko'rindi. O'ng qo'limning to'rtta barmog'ini dikkaytirdim.

-Ko'zlarimgizga qo'llarimni tiqib olaymi?

Badiiy adabiyotni ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o'zining "faoliyati" yo'naltirilgan borliqni o'z ongida o'zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi.⁸ Bu narsa ayniqsa, "Oq kema" asarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Asardagi dialoglarning intonatsiya (talaffuz, tovush o'zgarishi) va mimika (harakat, imo-ishora) orqali ifoda etilishi bolaning ruhiy holatini yoritishda muhim rol o'ynagan.

-Kimning bolasisan? –yana so'roqqa tuta boshladi sotuvchi.

-Mo'min chohnimi, a? Bola bosh irg'ab javob qildi.

-Nabirasi bo'lasanmi? –Ha, bola yana bosh silkidi.

-Onang qayoqda? Bola hech nima demadi. Uning bu haqda gapirgisi kelmasdi.

-Onang o'zi haqida hech xabar bermaydimi? O'zing bilmaysanmi?

-Bilmayman.

-Otangni-chi? Uni ham bilmaysanmi? Bola jim qoldi.

Insonning hissiy faoliyati, tabiiyki, aqliy faoliyatga turtki beradi, uni o'sha hislarni anglashga yo'naltiradi. Ya'ni ruhiy faoliyat predmeti ikkiga ajralmoqda:

Inson bir tarafdin, o'zidan tashqaridagi olamni o'rganishga, ikkinchi tarafdin, o'zini anglashga intila boradi. Demak insonni ruhiy faoliyati o'zidan tashqariga ham, o'z ichiga ham yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.⁹ Insondagi ichkariga yo'nalgan ruhiy faoliyat ifodalovchi asosiy vositalar monologlardir. Monolog –shaxs tomonidan yolg'iz yoki boshqalardan psixologik ajratilgan holda aytilgan gaplar. Bu o'ziga xosligi bo'yicha ham ichki nutq, shu sabab asar qahramonlarining ruhiy holatlarini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Bu "Ikki karra ikki-besh" asari qahramoni Qo'shoqvoy monologida ham o'z ifodasini topgan. "Munday qaragam, dadam direktorga, direktor dadamga tikilib turibdi. Ikkalasidan ham sado chiqadigan emas. Aniq sezib turibmanki, hozir qo'shib hisoblash kasalim qo'zg'amayapti". Asarda keltirilgan shu kabi monologlar bola qalbida, ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarni ochishga xizmat qilgan. Bu holat "Oq kema" asarida ham uchraydi. "Bilib qo'y, -ko'ppakni ogohlantirib qo'ydi u, -uzoq chopamiz". Ba'zan kattalar bolalarning o'ziga xos olami borligini unutib qo'yishadi. Bunday vaziyatlarda bola landshaftda (odamlarsiz, o'simliklar va hayvonot dunyosi) bo'lishni afzal ko'radi. Ya'ni uning dunyosida o'simliklar va hayvonlar o'rin egallay boradi. "Kunduzlari odatda tush

⁸ O'sha asar B-48

⁹ Quronov D. Adabiyot nazriyasi. T.: 2018. B-48

vaqtiga borib bola serpoya shiroljinlar g'uj bolib o'sgan tomonga jonashni yaxshi ko'rardi. Shiroljin baland bo'yli, gulsiz, lekin hushbo'y hidli bo'ladi. Ular yon –beriga boshqa o'simliklarni yo'latmay to'da-to'da bo'lib, alohida o'sadi. Shiroljin sadoqatli do'stdir. Ayniqsa, biror ko'ngilsizlik yuz berib, pinhona yig'laging kelganda shiroljin ostidan yaxshi panoh topish mumkin". Badiiy ijodning yana bir muhim unsuri – tasavvur. San'atkorning ijodiy tasavvuri xotirada mavjud fakt va taassurotlardan keraklilarini uyg'otib, ularni muayyan tartibga solingan manzara holida "ko'rish" imkonini beradi. Ya'ni ijodiy tasavvur hayot material (dispozitsiya)ni badiiy asar (kompozitsiya)ga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.¹⁰ "Oq kema" asaridagi bola va "Ikki karra ikki-besh"asari qahramoni Qo'shoqvoyning aynan maktabgacha yoshda bo'lgan davridagi o'y-fikrlarida ayrim o'xshashliklar kuzatiladi. Ular o'zlarining sinchkovliklariga ko'ra atrofdagi olamdan ko'plab taassurot oladilar, yangiliklarni bilishga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Bu davrda bolaning yoshiga xos bo'lgan aktivlik (faollik) paydo bo'ladi va rivojlana boradi, bu o'z navbatida uning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishida muhim ahamiyatga ega. Bu fikrni oydinlashtirish uchun konkret misolga murojat qilish maqsadga muvofiq. "Hech qanaqa kasal bo'lgan emasman! Bolaligimda ham, undan keyin ham. Angina-mangina, qizamiq-pizamiq – birontasi bizga yo'lagan emas! U yog'ini so'rasangiz, besh yoshga to'lgunimcha yalong'och yurganman! Nima? Ha, qishdayam. Xuddi shunga o'xshash jarayon " Oq kema" asari qahramonida ham uchraydi. Bobosi yasab bergan ko'lobda tinimsiz cho'milishi, "do'stlari" bilan o'ynab charchamasligi, balandliklardan turib atrofni kuzatishi uni ham chiniqtiradi." O'n yoshgacha bo'lgan bolalar ko'ngil ochishni, ermakni talab qiladi, ularning bu talabi biologik jihatdan haqli talabdir. Ular o'ynashni istaydilar, hamma narsa bilan o'ynaydilar va o'z atroflaridagi dunyoni shu o'yinlar orqali biladilar. Ular so'z bilan ham o'ynaydilar va so'z orqali ona tilining nozik tomonlarini o'rganadilar, adabiyotshunoslar ta'rificha, "tilning ruhini" o'zlashtiradilar"¹¹. Yuqoridagi " so'z bilan o'ynash" holatini biz Qo'shoqvoy obrazida kuzatamiz. "Oq kema"asari qahramonida bunday holat uchramaydi. Aslida Qo'shoqvoyga nisbatan Ch.Aytmatov qahramoni ko'proq ertak va afsonalar eshitadi. Bu uning so'zamolligini emas ko'proq tasavvurini kengaytirgan deyishimi mumkin. Asarda ertak va afsonalar keltirish Ch.Atmatov uslibiga xos muhim jihatlardan biri. "O'rmonda bir g'aroyib qush paydo bo'lib qoldi. Inson ovozigga o'xshash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig'lar, shohdan shohga o'tib so'ylardi". "Oq kema" asarida keltirilgan rivoyatning ushbu qismida uchraydigan nola chekayotgan qush

¹⁰ O'sha asar B-121

¹¹ Suyumov A, Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent "O'qituvchi" 1995.

obrazini biz O'.Hoshimov asarida ham uchramiz. "Dunyoning ishlari"qissasida keltirilgan "Haqqush" afsonasidagi qushlar obrazi shunga o'xshash tarzda tasvirlangan. Bola ongida obrazlarning boyishi va murakkablashishi uning tasavvurini kengaytiradi.

Sehri-afsonaviy ertaklar ertak janrining keng tarqalgan turi bo'lib, ularda asosan, insonlarning hayoti, tabiatga munosabati, dunyoqarashi, yaxshilik va go'zallik haqidagi qarashlari, orzu-umidlari ifodalanadi. Bunday ertaklar bolalarni xalqimizning qadimiy udumlari, hayot tarzi bilan tanishtirishda, ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stirib, katta ma'naviy ozuqa beradi. Ch.Aytmatov va O'.Hoshimov asarlaridagi qahramon bolalarning umumiy jihatlari shundan iboratki, avvalo, ularning yoshidagi mutanosiblik bo'lib, bu o'z navbatida ularning o'y-xayollari, fikrlashlarida yakdillik kasb etgan. Lekin "Oq kema" asaridagi bola obrazi xarakterida sokinlik mavjud. Bunga sabab uning yolg'izligi. "Bolaga ma'naviy oziq juda ehtiyotkorlik bilan berilishi kerak. Bolalar ota-onalarining xato va gunohlari uchun javobgar emaslar, shuning uchun ham mitti kitobxonga insonga xurmatsizlik kayfiyatlarini tug'diradigan narsalar emas, balki hammadan oldin uni ulug'lovchi narsalarni taqdim etish kerak. Insonni bolalarga avvalo, buyuk qahramon, nomalum mamlakatlarni kezgan buyuk sayyoh, afsonaviy pahlavon, hamda irodali qilib ko'rsatish kerak". M.Gorkiyning yuqoridagi fikrlari xuddi Ch.Aytmatovning "Oq kema" asariga berilgan tarifday nazarimda. Chunki asar qahramoni garchi o'z otasini ko'rmagan bo'lsa-da, uni xuddi o'sha oq kemada suzayotir degan qarorga kelgandi. Bola o'zi bunga ishonar, chunki u shunday bo'lishini juda-juda istardi"

XULOSA

Ch.Aytmatov va O'.Hoshimov asarlaridan o'xshash va farqli tomonlarni yana ko'plab topishimiz mumkin, lekin biz uchun muhim bo'lgan bola ruhiyatiga aloqador nekin (ichki, nozik) tuyg'ularni, hissiy-ruhiy jarayonlarni bir qarashda anglashimiz qiyin. Biz tahlilga olgan ushbu asarlar nafaqat adabiyot, pedagogika va psixologiya balki boshqa fanlar doirasida ham mushohadaga chorlaydi. Bunday asarlarning mazmuni sodda, aniq bo'lgani sabab bolalarni o'rab turgan hayot haqida tasavvurlarining kengayishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent. "Navoiy Universiteti", 2018.
2. A. Suyumov, M. Jumaboyev "Bolalar adabiyoti". Toshkent "O'qituvchi", 1995
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent, 2004.
4. Rasulov A. G'aroyib saltanat, T. "Turon-Iqbol", 2011.
5. Yu. P. Azarov . Bolalarni sevish san'ati. Toshkent- "O'qituvchi" 1992